



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sh. N. Kadirov<sup>1</sup>

<sup>1</sup> BuxDU Sport faoliyati kafedrasи kata o'qituvchisi

**INTEGRATSION YONADSHUV ASOSIDA BARKAMOL AVLODNI  
TARBIYALASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada barkamol avlodni tarbiyalashda integratsion yondashuvning zarurati va imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada o'quvchi shaxsini shakllantirishda jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning integratsiyasini ta'minlash yo'llari ko'rsatilagan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, tarbiya, barkamol avlod, integratsiya, shaxs, jismoniy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, harakatli o'yinlar, ma'naviy-axloqiy me'zon, didaktik printsip.

Respublikamizda uzliksiz ta'lif tizimini rivojlantirishda qaratilgan isldohotlarning asosiy maqsadi ta'lif-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirishga qaratilgan. Ta'lifning hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da muhim vazifalardan biri sifatida sanab o'tilgan. Shuning uchun ham ta'lifni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Integratsiya- ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. "Integratsiya" tushinchasi XVIII arsdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta'lif shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qilindi.

"Integratsiya" – "butun" degan ma'noni bildiradi. Demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qismi va integratsiyani atama va uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik. "Integratsiya" so'zi lotincha "integratio" – tiklash, to'ldirish va "integral" – butun so'zidan kelib chiqqan degan izohni keltiradi. [3,23bet]

Umumiy o'rta ta'lif tizimidagi o'quv fanlardan biri jismoniy tarbiya fani mavzularini integratsiyalashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida ta'lif samaradorligi oshadi hamda ortiqcha kuch, zo'riqish sarflanishlarining oldi olinadi.

Integratsiya haqida yurtimiz professor-olimlari ilmiy izlanishlaridan tashqari chet davlat olimlari ham o'z izlanishlarini olib borishgan. "Integatsiya – differensiattsiya jarayonlaridagi fanlarning o'zaro yaqinlashuvi va bog'liqligida ko'rindi. Integratsiya jarayoni fanlararo bog'liqlikning yuqori shaklida namoyon bo'ladi" [4, 48bet]deb yozgan.

"Integratsiya" tushinchasi ta'lif jarayoniga tadbiq etilganda ikkita ma'noni anglatadi. Birinchidan, bu maktab o'quvchilariga bizni o'rab turgan atrof-olamni bir butunlikda deb qabul qilishiga erishish(integratsiya ta'lif maqsadi sifatida maydonga chiqadi); Ikkinchidan, fanga doir bilimlarni umumiy jihatlarini yaqinlashtirish(integratsiya ta'lif vositasi sifatida qaraladi).

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, integratsiya o'quv fanlari orasidagi tizimli bog'liklarni, fanlarning bir-birini taqazo etishi, to'ldirish, mukammallashuvi uchun yo'll ochib beradi. Integratsiya o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbai deb baholash mumkin. Shu jihatdan biz tadqiqotimizda o'quvchi shaxsi shakllanishida jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta'minlashga e'tiborni qaratamiz.

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning jismonan yuksalishini ta'minlovchi badantarbiya, ta'lif-tarbiya, ma'naviy va ma'rifat kabi tushinchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti yo'li bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi.

Ma'naviy –axloqiy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash –faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumdavlat ahamiyatiga molik masala hisoblanib, u- ko'pmillatli Vatanimiz tug'ilib o'sgan, barcha xalqlar uchun birday ezgu maqsaddir.

Sport nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-axloqiy kamolotga etishishda ham muhim omildir. U irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan engishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, sog'lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq, albatta o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. Haqiqatdan ham "Hech bir narsa mamalakatni sport kabi tez dunyoga mashhur qila olmaydi". "Sport odamni mard, matonatl, bardoshli qilib tarbiyalaydi".[1,63 bet]

Mamlakatimizda jismoniy va ma'naviy- axloqiy barkamol avlodni voyaga etkazish masalasi biz uchun umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. SHuningdek, 2010 yilni sog'lom va ma'naviy boy, intelektual rivojlangan axloqan etuk, jismonan baquvvat avlodni, har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalash va voyaga etkazish maqsadida "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinganligi, sportga bo'layotgan talab va yaratilayotgan sharoitlar ham fikrimizning yaqqol isbotidir.

Yosh avlodni har tomonlama: aqliy, ma'naviy-ahloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida jismoniy tarbiya asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr muhabbatni singdirishning g'oyat muhim sharti ommaviy sportni rivojlanishdir. Asta –

sekin o'quvchi va talabalar uchun sport o'yinlarining uch bosqichli, ya'ni "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" musobaqlai ommaviylashib bormoqda.

Ma'naviy –axloqiy jihatdan pok va etuk insonlarni tarbiyalash masalasini muvafaqiyatli hal etisha xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy boyliklari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy me'roslari va tarixiy-tarbiyaviy tajribalarini o'rganib chiqish, ularning yutuqlarini hayotga, ta'lim-tarbiya ishlariga tatbiq etishning ahamiyati kattadir.

Ma'lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, jismoniy madaniyati, ma'nviy-axloqiy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudg, kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk shaxslarning faoliyati mohir tashkilotchilik, teran bilimlilik bilangina emas, balki ularning axloqi va odobi bilan ham yuksak ma'no- mazmun kasb etgan. Odoblilik boshqalarnigina emas, o'zini ham hurmat qilish deganidir. Ayniqsa, bizning milliy an'alarimizga ko'ra, insonning komilligi, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy etukligida, ajdodlar me'osini chuqur o'rganib, uni boyitish, katta-kichkina ehtirom ko'rsatish borasidagi harakatlarida ko'zga ko'rindi. Komillik darajasini har kim o'zicha belgilay olmaydi. Komillik har bir shaxsning o'zidan ko'ra boshqalarga yaxshiroq bo'ladi. Komil inson- qullik, mutelik, boqimandalikdan batamom xalos bo'lgan inson.

Komil inson o'z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g'oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo'ladi.

Yuksak madaniyat esa, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi, rivoj topadi va takomillashadi. Pedagogik ta'limning muhim bosqichlaridan biri jismoniy tarbiya hisoblansa, uning mazmunida xilma-xil mashqlar, sport turlari, sayohatlar, tabiatning sog'lomlashuvchi(quyosh, suv, havo, gigenik talablar) omillari, harakatli o'yinlar mustahkam o'rinnegallaydi. Avval ta'kidlaganidek, insonlarning tabiiy harakatlari maxsus jismoniy mashqlar va o'yinlar orqali tarbiyalanadi, ulaning rivojlanishi va takomillashishida xizmat qiladi. Ayniqsa, jismoniy holatlar insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni tobora kengaytirishda muhim omillardan bo'lib hisoblanadi.

Deyarli, barcha o'yinlar aqliy, estetik, mehnat va ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Shu asosda bolalar nutqini o'stirish, til boyligini kengaytirish, ruhiy emotsiyonal xolatlarini(zukko, quvnoqli, shodlik, xursandlik va h.k.) rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Ongililik, ko'rish, eshitish, his etish kabi sezgi tuyg'ularni rivojlantirishda mazmun va maqsad jihatdan qo'llash uchun o'yinlar g'oyat ko'p. Masalan: Tundan oy yorug'ida "Oq suyak" o'yinini yoshlar va katta yoshdagi kishilar aralashib o'ynashgan. Bunda ko'z yumuq holda uzoqqa otilgan suyakning erga tushishini eshitish, his etish talab etiladi. Suyakni topib manzilga etkazishda tezlik, epchillik va kuch zarur bo'ladi. Chunki, suyakni raqiblar tortib olishi mumkin. Shuningdek, "Ovchilar", "G'ozlar", "Kartoshka ekish", turli estafetalni o'yinlarda hatto harakatlar yugurish, yiqilishlar, to'p tushirib qo'yish, va uni ushlab olish kabi xolatlar raqiblarining zavqini oshirsa, jamoa a'zolarining zavqini qo'zg'aydi. Tomoshabinlarda xursandchilikni oshiradi. "Oq terakmi, ko'k terak", "G'ozlar" kabi o'yinlardagi qo'shiq she'rlarning kuylanishi-aytilishi o'yinchilarda nutqni o'stirish tomoq yo'llarini chiniqtirishda o'ziga xos tarbiyaviy jihatlar mavjuddir.

O'yinlarning eng muhim va ustuvor tomonlari shundaki, o'yin joylari ma'lum chegara bilan belgilanadi hamda o'yin qoidalariga to'liq rioya qilishni talab etiladi. O'yin qoidalarini bilib-bilmay buzganlarga jarima yoki shartli jazolar beriladi.

O'yinlarning tartibli, mazmunli va qiziqarli bo'lib o'tishida, o'qituvchi va faol o'quvchilarning roli g'oyat kattadir. O'yinlarning o'tishini nazorat qilishda hakamlar adolatli ish olib borishadi.

Ko'rgazmali ya'ni didaktik tamoyillar(pritsip) va usullar, harakatli o'yinlarni o'rganish, ularni o'tkazishda ko'p qo'llaniladi. Maydon yoki o'yin joylarini chizib ko'rsatish, qoidalarni qo'llar bilan ifodalash, o'yinchilarning texnik harakatlarini chizishda ifodalashlar muhim ahamiyatga egadir. Jadvallar chizmalar, slayd, video tasvirlar va boshqa texnik vositalardan foydalanishda harakatli o'yinlarning ijrosi to'la aks ettiriladi. Bu holatlarni o'quvchilar izchil va mukammal egallaydilar.

O'yinlarning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini mazmuniy jihatdan o'rganish va tahlil qilish ularni o'quvchilar o'rtaida tashkil qilishda ana shu maqsadlarni belgilab beradi.

Milliy harakatli o'yinlarning ahamiyati o'quvchilarning jismoniy tayyorgarliklarini yanada yaxshilash, ularning jismoniy barkamolligini oshirish va boshqa sohalardagi tadbirdarda mazkur muammolarni keng targ'ibot qilish zarur bo'ladi.

O'quvchi shaxsini shakllantirishda jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta'minlashda jismoniy tarbiya darslari bilan birgalikda umumiy ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'tladigan "Odobnoma" fanining o'rni ham kattadir. Ushbu fandan o'tladigan har bir mavzu yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mezonlari hisoblanmish kamtarlik, odoblilik, xushmuomalalik, mexr-oqibat, diyonat, orzu-umid, sabr-toqat, mehribonlik, saxiylik, insoniylik, burchga sadoqat, mehnatga muxabbat kabi qadriyatlar sodiq qilib tarbiyalaydi. Jumladan, ushbu fanda "Sharqona tarbiyada muomala madaniyati" mavzusini o'tish jarayonida o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining moxiyati uning o'ziga nazariy-milliy asoslari, mazmuni, shakl va usullari, bu boradagi o'zbek etnopedagogikasi ma'lumotlari, buyuk ajdodlarimizning milliy tarbiyaga doir asarlarni sharxlash bilan ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tarkib topib borganligi va bu ma'naviy-axloqiy tarbiya xalq og'zaki ijodi, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimiz, tarxiy yodgorliklar, tasviriy hamda san'at asarlari, allomalarimiz bitiklarida o'z ifodasini topganligini ham o'quvchilar ongiga etkazishga harakat qilinadi. Ushbu sifatlar jismoniy tarbiya darslarida mazmunan davom ettirilishi yuqori samara beradi.

Jumladan, qadim zamonalarda yoshlarni hayotga tayyorlashga erta kirishilgan. SHarq xalqlari, ayniqsa, O'rta Osiyodagi o'zbek oilalarida o'g'illarni bo'lajak oila boshlig'i sifatida tayyorlash odat tusiga aylangan. Shuning uchun yoshlikdan boshlab o'g'il bolalarni dovyurak, qo'rmas, botir, jismoniy chiniqqan, axloqli, vatanparvar, mehnatsevar, biror-bir kasb egasi qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga xalq mehnatsevarligi, hunarmandligi haqida ham to'xtalish lozim. Shuningdek, o'tmishda faqat mehnat qilish malakasini singdirish bilan kifoyalanmay, balki mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash, topshiriqlarni sidqidildan bajarish, ishda, o'qishda qat'iyatli sbrli bo'lishga e'tibor qaratganligi, yoshlikdan hunar o'rgatishga da'vat etganliklari haqida o'quvchilarga so'zlab berish, aniq hayotiy misollar va namunalar asosida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchi shaxsini shakllantirishda jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta'minlashda quyidagi dolzarb vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1. Barkamol avlodni shakllantirishda jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta'minlash jarayonini pedagogik muammo sifatida chuqur o'rganish va tahlil qilish.
2. O'quvchilarni jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muzmuni va pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish.
3. O'quvchi shaxsini shakllantirishda jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta'minlashning maqbul shakl, metod va vositalarini aniqlash.
4. O'quvchi shaxsini shakllantirishda jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta'minlashning pritsip, qonuniyatlarini ishlab chiqish.
5. Barkamol avlod shaxsini shakllantiruvchi jismoniy mashqlarni tanlashning ma'naviy-axloqiy me'zonlarini yaratish.
6. O'quvchi shaxsini shakllantirishda jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasini ta'minlash dasturini ishlab chiqish.
7. O'quvchilarda jismoniy tarbiya orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishning shakl, metod va vositalarini aniqlash bo'yicha ilmiy- metodik tavsiyalar yaratish.

## Foydadanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.SHarq nashriyoti-matbaa konserni.T.1997.-63 bet
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".T.1997 y.20 b.
3. M.Mavlonova, N.Raxmaulova. "Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash" o'quv qo'llanma.T. "O'qituvchi" 2011y. 1-bob.
4. L.N.Baxareva o'zining "Integratsiya uchebnix zanyatiy v nachalnoy shkole na kravedcheskoy osnove" (nachalnaya shkola 1991g №8. 48 s.)
5. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 1011-1016.
6. SH.Kadirov. Спорт как важный Фактор социализации учащихся. Professional formation of the future teacher Materials of the international scitntific conference on May 22-23, Prague 2017
7. SH.Kadirov. Physical education as the necessary elements of sports culture. XIII international correspondence scientific and practical conference european research; innovation in science,education and technology dio;10 20861 2304-2338-2018-42
8. SH. Kadirov.Theory and metohods of physical educattion,sports training,recreational and adaptive physical culture. I international scientific specialized conference international scientific review of the problems of pedagogy and psychology Boston.USA.April 18-19.2018
9. SH.Kadirov. Didactic opportunities to form knowledge about healthy lifestyle to the students in physical education classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol.7 No.12,2019 ISSN 2056-5852.
10. Asian Journal of Multidimensional Research (A Double Blind Refereed & Peer Reviewed International Journal) DOI: 10.5958/2278-4853.2020.00286.4

11. Kadirov Shohrukh Nematovich. Sports, physical, physical education as necessary elements of sports culture. MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 VOLUME 11 April 2021
12. Nematovich K. S. Ways to Hold National Action Games with Kindergarten Children. – 2022.
13. Кодиров Ш. Н., Рамазонова М. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ РЕГУЛЯЦИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ:10.53885/edinres.2022.91.84.023 ШН Кодиров Преподователь, Бухарского государственного университета М. Рамазонова Студентка 1 го курса //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 497-501.
14. Abduyeva S. Jismoniy madaniyatning ijtimoiy funksiyasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
15. Abduyeva S. JISMONIY MADANIYAT SOHASIDA INNOVATSION METODLARNI QO'LLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI //PEDAGOGIK MAHORAT. – 2021. – С. 103.
16. Karomatovich I. A. O'QUV-TARBIYA JARAYONINI LOYIHALASHTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO'NALISHLARI VA UNING IJTIMOIY AHAMIYATI: 10.53885/edinres. 2022.43. 16.119 Ibragimov Alisher Karomatovich Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti. Buxoro davlatuniversiteti //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 958-960.
17. Qizi A. S. S. Teach handball to 19-20 year Olds using action games. – 2022.
18. Karomatovich I. A. MILLIY O'YINLARNING INSONNING JISMONIY VA IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 160-164.
19. Karomatovich I. A., Todzhiddinovich S. U. Methodology for Developing Speed and Strength Abilities for Novice Boxers Method of Development of Speed-Power Abilitiesat Beginning Boxers //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 185-190.
20. Karomatovich I. A. Conducting Sports Holidays in Pre-School and Primary Educational Institutions //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 153-157.
21. Qizi A. S. S. The study of physical culture in central asia in the 16th and 18th centuries as a topical issue. – 2021.
22. Тошев М. Х. Мактаб ўқувчиликарини шахматга тайёрлашнинг шакллари: 10.53885/edinres. 2021.44. 19.065 МХ Тошев БухДУ таянч докторанти //Научно-практическая конференция. – 2021
23. Halilovich T. M. An International Multidisciplinary Research Journal.
24. Xalilovich T. M. Areas of work of a sports psychologist //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 188-193.
25. Halilovich T. M. The role of chess in the development of intellectual abilities of secondary school students (based on computer technology) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 1254-1258.